



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT: HOLATI, MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА В УЗБЕКИСТАНЕ: СТАТУС, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN: STATUS, PROBLEMS AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Karimova Latofat Sadullayevna

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti PhD, dotsent v.b;

Jabborov Abdulla Akbar o‘g‘li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi masalalari ko‘rib chiqilgan. Mamlakatimizda raqamli transformatsiyaning joriy holati tahlil qilinib, asosiy ko‘rsatkichlar xalqaro me‘yorlar bilan qiyosiy o‘rganilgan. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi, kadrlar salohiyati, qonunchilik muhiti va moliyalashtirish manbalari — sistemali tarzda baholangan. Maqolada raqamli iqtisodiyotning milliy YaIM ga hissasi, elektron tijorat hajmi, raqamli xizmatlar bozorining dinamikasi tahlil qilingan hamda sohadagi asosiy to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etilgan. Natijalar asosida O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun siyosiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, AKT infratuzilmasi, e-tijorat, fintech, Sanoat 4.0.

В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития цифровой экономики в Узбекистане. Анализируется текущее состояние цифровой трансформации в нашей стране, изучаются основные показатели в сравнении с международными стандартами. Систематически оцениваются факторы, влияющие на развитие цифровой экономики — информационно-коммуникационная технологическая инфраструктура, человеческие ресурсы, законодательная среда и источники финансирования. В статье анализируется вклад цифровой экономики в ВВП страны, объем электронной коммерции, динамика рынка цифровых услуг, предлагаются основные препятствия в этой области и пути их преодоления. На основе полученных результатов были разработаны рекомендации по политике для ускоренного развития цифровой экономики в Узбекистане.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая трансформация, ИКТ-инфраструктура, электронная коммерция, финтех, Индустрия 4.0.

This article examines the issues of the formation and development of the digital economy in Uzbekistan. The current state of digital transformation in our country is analyzed, and the main indicators are studied in comparison with international standards. The study systematically assesses the factors affecting the development of the digital economy — information and communication technology infrastructure, human resources, legislative environment and sources of financing. The article analyzes the contribution of the digital economy to the national GDP, the volume of e-commerce, the dynamics of the digital services market, and proposes the main obstacles in the field and ways to overcome them. Based on the results, policy recommendations were developed for the accelerated development of the digital economy in Uzbekistan.

Keywords: digital economy, digital transformation, ICT infrastructure, e-commerce, fintech, Industry 4.0.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy global iqtisodiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, mamlakatlarning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi hamda raqamli platformalarning ommalashuvi iqtisodiy jarayonlarning transformatsiyasiga olib kelib, an’anaviy biznes modellarini tubdan o‘zgartirmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvi, moliya tizimi, savdo, sanoat va xizmatlar sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta‘minlash va yangi qiymat zanjirlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimi, raqamli to‘lov xizmatlari, onlayn savdo platformalari hamda sun‘iy intellekt asosidagi yechimlarning joriy etilishi mamlakatda raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ular orasida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, hududlar o‘rtasida raqamli tafovutlarning mavjudligi, kadrlar salohiyatining yetishmasligi hamda kiberxavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda uning rivojlanish istiqbollarini belgilash zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqot doirasida raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ahamiyati hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari kompleks yondashuv asosida o‘rganiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning hozirgi holatini baholash, rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni aniqlash va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasini ilmiy muomalaga Don Tapscott 1994 yilda kiritgan bo‘lib, u bu tushunchani "intellektual kapital va axborot texnologiyalariga asoslangan yangi iqtisodiy tizim" sifatida ta‘riflagan [1]. Keyinchalik bu sohadagi tadqiqotlar tobora kengayib, Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish, mehnat bozori va iqtisodiy o‘sishga ta‘sirini chuqur o‘rgangan. Ular "ikkinchi mashina asri" konsepsiyasida texnologik tezlanishning iqtisodiy tengsizlikni ham kuchaytirishi, ham yangi imkoniyatlar eshigini ochishi mumkinligini asoslab bergan [2].

Jahon banki tadqiqotchilarining ishlarida raqamli infratuzilma va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiya empirik jihatdan tasdiqlangan. Xususan, keng polosalik internet tarmog‘iga kirish imkoniyatining 10 foizga oshishi rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIM ni o‘rtacha 1,38 foizga o‘stirishi ko‘rsatilgan [3]. UNCTAD hisobotida esa raqamli iqtisodiyotning global miqyosda 15,5 trln dollarni — ya‘ni jahon YaIM ning 15,5 foizini tashkil etishi qayd etilgan va bu ko‘rsatkich har yili o‘sib borayotganligi ta‘kidlangan [4]. ITU (Xalqaro elektr aloqa ittifoqi) tadqiqotlari ko‘rsatishicha, raqamli inklyuziya — ya‘ni aholining keng qatlamlari uchun internet va raqamli xizmatlarga kirishni ta‘minlash — iqtisodiy o‘sish bilan sezilarli ijobiy bog‘liqlikka ega [5]. BMTning elektron hukumat rivojlanish indeksiga ko‘ra esa raqamli davlat xizmatlari aholining hayot sifatini yaxshilashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda [6].

O‘zbekiston misolida raqamli iqtisodiyotni o‘rganish yaqin o‘n yillikda faollashib, mahalliy iqtisodchilar tomonidan bir qator fundamental va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sh. Toshmatov va M. Yusupova O‘zbekistonda elektron hukumat tizimining joriy etilishi va uning ma‘muriy samaradorlikka ta‘sirini o‘rganib, davlat xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samara ko‘rsatkichlarini hisoblashning metodologik asoslarini ishlab chiqqan [11]. A. Xoliqov esa mamlakatimizda fintech sektorining rivojlanish bosqichlari va iste‘molchilar xulq-atvori transformatsiyasini tahlil qilgan [12]. Biroq O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy

ko‘rsatkichlarga yig‘ma ta‘sirini baholash sohasida hali yetarli tadqiqotlar olib borilmagan — ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga yo‘naltirilgan.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanilgan: (1) O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma‘lumotlarini tahlil qilish; (2) kross-seksion qiyosiy tahlil — O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini MDH va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirish; (3) SWOT-tahlil — raqamli iqtisodiyot rivojlanishidagi kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash; (4) ekspert baholash metodi — tarmoq mutaxassislari va akademik doira vakillari bilan suhbatlar asosida sifatli ma‘lumotlar to‘plash.

Tadqiqotda asosiy manba sifatida 2018—2024 yillar qamrovini o‘z ichiga oluvchi panel ma‘lumotlardan foydalanilgan. Xalqaro qiyosiy tahlil uchun Jahon iqtisodiy forumining Global Raqobatbardoshlik indeksi, BMTning Elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) va ITU ma‘lumotlaridan foydalanilgan. Hisob-kitoblar Microsoft Excel va Stata dasturlarida amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 2018—2024 yillar oralig‘ida 7,5 milliondan 24 millionga yaqin ko‘tarilib, aholi qamrovi 22 foizdan 67 foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkich mintaqadagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lsa-da, Yevropa davlatlari (90% dan ortiq) va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarining yetakchilaridan (Koreya 97,6%, Yaponiya 93%) sezilarli darajada orqada qolmoqda. Mobil internet aloqasi rivoji ayniqsa salmoqli: 4G LTE tarmog‘i 2023 yil holatiga ko‘ra mamlakatning 80 foizidan ziyod hududini qamrab olganligi, 5G aloqasini joriy etish sinov bosqichlari Toshkentda amalga oshirilayotganligi qayd etilmoqda.

Biroq katta shahar va qishloq hududlar o‘rtasidagi raqamli farq (digital divide) hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Toshkent shahridagi internet tarqalish ko‘rsatkichi 92 foizni tashkil etgan holda, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida bu ko‘rsatkich 40—45 foiz darajasida qolmoqda. Ushbu hududiy nomutanosiblik raqamli iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda elektron tijorat bozori so‘nggi besh yilda jadal rivojlanmoqda. 2019 yilda umumiy hajmi taxminan 200 mln AQSh dollarini tashkil etgan e-tijorat bozori 2023 yilga kelib 1,2 mlrd dollardan oshib ketdi — bu 6 baravarlik o‘shishni anglatadi. Bozorning yetakchi ishtirokchilari qatorida Uzum Market, OLX O‘zbekiston, Zoodmall va bir qator tarmoqqa xos platformalar mavjud. COVID-19 pandemiyasi davri onlayn xaridlar odatini keskin rag‘batlantirdi: 2020—2021 yillarda e-tijorat hajmi yiliga o‘rtacha 85 foizga o‘tdi.

Raqamli xizmatlar sektorida IT-eksport alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2022 yilda O‘zbekistonning IT-eksport hajmi 300 mln dollarga yetib, 2018 yilga nisbatan 4,5 baravar o‘tdi. Hukumat 2030 yilga kelib IT-eksportni 5 mlrd dollarga yetkazish maqsadini belgilab, IT Park rezidentlariga soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etmoqda. Hozirda 500 dan ortiq kompaniya IT Parkda ro‘yxatdan o‘tib, 30 000 dan ziyod mutaxassisga ish joyi yaratilgan.

Moliyaviy texnologiyalar (fintech) sohasi O‘zbekistonda eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biriga aylangan. Payme, Click, Uzcard va Humo kabi mahalliy to‘lov tizimlari millionlab foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda. 2023 yil ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 25 mln dan ortiq bank kartasi muomalada bo‘lib, naqd bo‘lmagan to‘lovlarning umumiy to‘lovlardagi ulushi 35 foizga yetgan — bu 2019 yildagi 7 foizlik ko‘rsatkichdan sezilarli o‘shishdir. O‘zbekiston Markaziy bankining «Raqamli so‘m» loyihasi (CBDC) bo‘yicha sinov loyihalari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ochiq bank tizimi (Open Banking) konsepsiyasini joriy etish, kriptovalyutalarni tartibga solish va blockchain texnologiyalarini davlat boshqaruviga tatbiq etish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy bazani shakllantirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston BMTning Elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) reytingida 2018 yildagi 91-o‘rindan 2022 yilda 69-o‘ringa ko‘tarildi — bu reytingdagi eng tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirganligini anglatadi. My.gov.uz portalida 700 dan ortiq elektron davlat xizmati taqdim etilayotgan bo‘lib, ularning 2023 yilda umumiy foydalanish soni 50 mln ga yaqin tranzaksiyani tashkil etdi. "Yagona darcha" prinsipi asosida davlat xizmatlarini raqamlashtirish fiskal samaradorlikni oshirdi: byudjet xarajatlarini qisqartirish va korrupsiyaga qarshi kurashda oshkorlik

darajasi yaxshilandi. "Raqamli shahar" konsepsiyasini Toshkentda sinov tartibida joriy etish borasida muhim qadamlar qo'yildi: aqlli transport boshqaruvi, nazorat kamera tizimlari va elektron kommunal to'lov xizmatlari aholining kundalik hayotiga kirib bordi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishidagi eng o'tkir muammo — malakali IT-mutaxassislar yetishmasligi. Mamlakat iqtisodiyoti 2030 yilga kelib 100 000 dan ortiq qo'shimcha IT-mutaxassisga ehtiyoj sezishi prognoz qilinmoqda, holbuki hozirgi oliy ta'lim tizimi yiliga taxminan 7 000—8 000 bitiruvchi tayyorlaydi. Bu bo'shliq milliy IT-loyihalarda chet ellik mutaxassislarga bog'liqlikni oshirib, ish haqi xarajatlarini ko'tarmoqda. Bundan tashqari, aholining katta qismi orasida raqamli savodxonlik darajasi pastligicha qolmoqda: 35 yoshdan yuqori aholi guruhlarida kompyuter va internet unumli foydalanish ko'nikmalari hali ham yetarlicha rivojlanmagan.

Startup ekotizimining rivojlanmaganligi va venchur kapital bozorining shakllanmaganlik darajasi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivoji uchun jiddiy to'siq hisoblanadi. 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonlik startaplarga jalb etilgan venchur investitsiyalar hajmi 50 mln dollardan oshmagan — bu Hindiston (20+ mlrd dollar) yoki Gruziya bilan solishtirib bo'lmaydigan raqam. Kreditlarga kirish imkoniyatining chegaralanganligi, tijorat banklarining yuqori foiz stavkalari (14—20%) va garovi cheklangan innovatsion loyihalarga moliyalashtirishning qiyinligi — bular raqamli startaplar rivojini to'xtatuvchi asosiy omillar.

Raqamli sohadagi qonunchilik bazasi texnologiyalar taraqqiyotiga nisbatan sekin rivojlanmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunning amaliyotda to'liq amalga oshirilmashligi, bulutli hisoblash va sun'iy intellekt uchun aniq tartibga soluvchi standartlarning yo'qligi va kiberxavfsizlik sohasidagi normativlar tizimining barqarorlashmaganligini qayd etish zarur. Elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish va ularga nisbatan tartibga solish mexanizmlarining noaniqligi ba'zi kompaniyalarni norasmiy sektorda qolishga undamoqda.

Internet tarmoqlarining sifati va tezligi hududlar bo'yicha katta farq qilishda davom etmoqda. Keng polosali internet xizmatlarining narxi ko'plab oilalar uchun hali ham qimmat: Speedtest Global Index ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda o'rtacha mobil internet tezligi jahon o'rtachasidan pastroq. Kiberxavfsizlik sohasida esa tarmoq hujumlariga duch kelayotgan hukumat va xususiy tashkilotlar soni ortmoqda, lekin ularning aksariyati kiberxavfsizlik bo'yicha yetarli malakali xodimlar va zamonaviy infratuzilmaga ega emas.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining SWOT-tahlili amalga oshirildi.

Kategoriya	Tavsif
Kuchli tomonlar (Strengths)	1. Yosh va faol aholining katta ulushi — 30 yoshgacha bo'lgan aholi umumiy aholining 60% dan ortig'ini tashkil etadi. 2. Yuqori matematik va texnik ta'lim an'analari. 3. Qulaylik kafolatlangan hukumat islohotlari va IT imtiyozlari. 4. Strategik geografik joylashuv — Markaziy Osiyo IT-markazi bo'lish imkoniyati.
Kuchsiz tomonlar (Weaknesses)	1. AKT infratuzilmasining hududlar bo'yicha notekisligi. 2. Malakali IT-mutaxassislar tanqisligi. 3. Venchur moliyalashtirish tizimining rivojlanmaganlik darajasi. 4. Ingliz tili bilimining past darajasi — xalqaro bozorga chiqishni cheklovchi omil.
Imkoniyatlar (Opportunities)	1. Xalqaro loyihalar doirasida investitsiya jalb qilish. 2. Onlayn ta'lim (EdTech) va masofaviy mehnat bozorlarini rivojlantirish. 3. Mintaqaviy IT-eksport salohiyatini kengaytirish. 4. Agrotech va Smart Farming texnologiyalari orqali qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish.

Kategoriya	Tavsif
Tahdidlar (Threats)	1. Xalqaro IT kompaniyalarining kuchli raqobati. 2. Beyin oqimi — malakali IT-mutaxassislarning chet elga ko‘chib ketishi. 3. Kiberxavfsizlik tahdidlarining ortishi. 4. Texnologik bog‘liqlik — asosiy raqamli platformalar va qurilmalar importiga haddan ortiq tayanish.

Raqamli iqtisodiyot sohasida yetakchi davlatlarning tajribasi O‘zbekiston uchun qimmatli saboqlar beradi. Estoniya — "raqamli respublika" modeli: aholisi atigi 1,3 mln bo‘lgan ushbu Boltiqbo‘yi mamlakatida 99 foiz davlat xizmati onlayn rejimda ko‘rsatiladi, raqamli shaxsiyat (e-ID) fuqarolar tomonidan keng qo‘llaniladi va elektron saylov tizimi ishonchli faoliyat ko‘rsatmoqda. Estonia IT-eksporti YaIM ning 7 foizidan ortiq ulushni tashkil etadi.

Hindiston tajribasi ayniqsa O‘zbekiston uchun dolzarb: demografik tuzilmasi va iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan o‘xshash bo‘lgan Hindiston "Digital India" dasturi (2015) orqali ulkan transformatsiyaga erishdi. UPI to‘lov platformasi orqali 2023 yilda 100 mlrd dollardan ortiq tranzaksiya amalga oshirildi. Hindistonning Aadhaar biometrik shaxsiyatlashtirish tizimi 1,4 mlrd fuqaroga raqamli identifikatsiya berdi va moliyaviy inklyuziyani kengaytirdi.

MDH davlatlari orasida Qozog‘iston va Gruziyaning tajribasi ham diqqatga sazovor. Qozog‘iston «Raqamli Qozog‘iston» dasturi doirasida IT-parklar tarmog‘ini kengaytirdi va AIFC orqali fintech huquqiy muhitini modernizatsiya qildi. Gruziya esa soliq ma‘muriyatini raqamlashtirish va tadbirkorlik muhitini soddalashtirish yo‘li bilan qisqa vaqtda Doing Business reytingida yuqori o‘ringa ko‘tarildi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning o‘sish sur‘ati MDH o‘rtacha ko‘rsatkichidan oshib ketmoqda, biroq ushbu o‘sish hali ham poydevorini shakllantirish bosqichida. Brynjolfsson va McAfee tomonidan asoslangan "umumiy maqsadli texnologiya" (General Purpose Technology) nazariyasi asosida baholansa [2], O‘zbekistondagi raqamli transformatsiya aynan shu nazariya doirasida — ya‘ni texnologiyalarning dastlab bitta sohada qo‘llanib, keyinroq butun iqtisodiyotga tarqalish jarayonida ekanligi ko‘rinmoqda. E-tijoratning yiliga 6 baravarlik o‘sishi va fintech sektorining tez rivojlanishi buning yorqin namunasidir.

Jahon banki metodologiyasiga muvofiq hisoblangan ko‘rsatkichlar shuni tasdiqlaydi: O‘zbekistonda keng polosalik internet qamrovining 22 foizdan 67 foizga o‘sishi — ya‘ni taxminan 45 foizlik o‘sish — nazariy jihatdan YaIM ning 6,2 foizga qo‘shimcha o‘sishini ta‘minlashi mumkin edi [3]. Biroq amaliyotda bu potensial to‘liq ro‘yobga chiqmagan, chunki raqamli infratuzilmaning mavjudligi yolg‘iz o‘zi yetarli emas — uni samarali foydalanish uchun kadrlar salohiyati, qonuniy muhit va moliyaviy ekotizim ham bir vaqtning o‘zida rivojlanishi kerak.

OECD tadqiqotlari ko‘rsatganidek, raqamli iqtisodiyotning YaIM ga hissasi faqat infratuzilma qurish bilan emas, balki "raqamli ko‘nikmalar" (digital skills) ning aholida keng tarqalishi bilan ham belgilanadi [15]. O‘zbekistonda esa hali raqamli savodxonlik darajasi aholining aksariyatida, xususan 35 yoshdan yuqori va qishloq joylarda yashovchi guruhlar orasida yetarlicha rivojlanmagan. Bu hol raqamli iqtisodiyot qamrovini cheklaydi va uning inklyuziv xarakter kasb etishiga to‘sqinlik qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim tarkibiy muammolardan biri — shahar va qishloq hududlar o‘rtasidagi raqamli tengsizlik hisoblanadi. Toshkentda internet qamrovi 92 foizni tashkil etgan holda, Surxondaryo viloyatida bu ko‘rsatkich 40—45 foiz darajasida qolmoqda. Ushbu farq nafaqat infratuzilma muammosi — u ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning raqamli ko‘rinishi hamdir.

UNCTAD hisobotida ta‘kidlanganidek, raqamli tengsizlik odatda mavjud iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi: raqamli xizmatlarga kirishi bo‘lgan hududlar tezroq rivojlanib, orqada qolgan hududlar yanada ko‘proq ortda qoladi [4]. O‘zbekistonda ushbu xavf ayniqsa dolzarb bo‘lib, viloyatlar orasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farq qachondan beri kuzatilayotgan bo‘lsa, raqamli tengsizlik uni yanada kuchaytirishi mumkin. Shu bois, hududiy raqamli inklyuziya masalasini alohida siyosat ustuvorligi sifatida ko‘rib chiqish zarur. Qiyosiy tahlil ko‘rsatishicha, Hindistonning "BharatNet" loyihasi — qishloq panchoyatlarini optik tolali kabel bilan ulash dasturi — raqamli tengsizlikni bartaraf etishda samarali usul sifatida isbotlangan. Ushbu tajriba O‘zbekiston sharoitiga

moslashtirilishi, xususan tog‘li va uzoq hududlarni sun‘iy yo‘ldosh interneti texnologiyalari orqali qamrab olish rejalariga qo‘shilishi mumkin. ITU standartlariga muvofiq, universal kirish xizmati kontsepsiyasini qonuniy asosda mustahkamlash ham muhim chora hisoblanadi [5].

O‘zbekistonda naqd bo‘lmagan to‘lovlar ulushining 7 foizdan 35 foizga o‘sshi katta yutuq bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich hali juda past. Taqqoslash uchun: Hindistonning UPI tizimi joriy etilganidan beri naqd bo‘lmagan to‘lovlar ulushi bir necha yil ichida 70 foizdan oshib ketdi. Manyika va boshqalar (2016) o‘z tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli to‘lov tizimlarining moliyaviy inklyuziyani sezilarli kengaytirishini ko‘rsatgan: har bir foizlik naqd bo‘lmagan to‘lovlar ulushi oshishi bilan rasmiy bank sektoriga qo‘shilish darajasi ham yuqorilashadi [14].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tapscott, D. (1996). The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.
3. World Bank. (2016). World Development Report 2016: Digital Dividends. Washington, DC: World Bank.
4. UNCTAD. (2023). Digital Economy Report 2023. United Nations Conference on Trade and Development, Geneva.
5. ITU. (2023). Measuring Digital Development: ICT Price Baskets 2023. International Telecommunication Union, Geneva.
6. United Nations. (2022). E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. UN DESA.
7. WEF. (2023). Global Competitiveness Report 2023. World Economic Forum, Geneva.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-6079-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. (2023). O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: statistik ma’lumotlar. Toshkent.
10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot holati to‘g‘risida hisobot. Toshkent.
11. Toshmatov, Sh., & Yusupova, M. (2021). Elektron hukumat tizimini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (4), 12—28.
12. Xoliqov, A. (2022). O‘zbekistonda fintech sektorining rivojlanishi va iste’molchilar xulq-atvorining transformatsiyasi. O‘zbekiston iqtisodiyoti, (2), 45—59.
13. Djankov, S., & Nasr, H. (2020). Digital Technologies and Growth in Developing Countries. Policy Research Working Paper No. 9192. World Bank.
14. Manyika, J. et al. (2016). Digital Finance for All: Powering Inclusive Growth in Emerging Economies. McKinsey Global Institute.